



Tadqiqot **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR  
№24**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## 22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## 24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## 25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Ergasheva Madina Toyir qizi</b> QO‘QON XONLIGINING YUKSAK QALB SOHIBALARI .....	7
<b>2. Tapilova Nafisaxon Maxammadyakubovna</b> MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT. “YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH” .....	10
<b>3. Xaytboyeva Nazokat Farhodov</b> BARKAMOL AVLOD-MUSTAHKAM KELAJAK POYDEVORI .....	11
<b>4. Boymirzayev Ismoil</b> O‘ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKATLARI O‘ZARO MADANIY HAMKORLIKNING TARIXIY XUSUSIYATLARI .....	13
<b>5. Файзиева Махфуза Исроиловна</b> ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ В ОБУЧЕНИИ ИСТОРИИ .....	16



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### QO‘QON XONLIGINING YUKSAK QALB SOHIBALARI

**Ergasheva Madina Toyir qizi**

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va  
amaliyoti fakulteti “Gid hamrohligi va turizm”  
qo‘shma dastur magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVIII-asr oxiri XIX-asr boshlarida Qo‘qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishida va rivojlanishida bevosita xonlikdagi malikalar tomonidan barpo ettirilgan maktab va madrasalarning o‘rni beqiyosligi, shu bilan birgalikda nafaqat hukmdorlar balki mehridaryo malikalar ham xonlikning gullab yashnashi va yordamga muhtoj xalq ravnaqi uchun beqiyos ko‘mak berishganligi va bu ilm o‘choqlari xalqni ma‘rifatli qilish va madaniy- ma‘naviy hayotni yuksaltirishda katta ro‘l o‘ynaganligi haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, malika, hukmdor, saroy, ilm-fan

**Аннотация:** В этой статье мы узнаем о научной, культурной и литературной среде, которая началась в Кокандском ханстве в конце XVIII-начале XIX веков. Особое место в его становлении и развитии занимают школы и медресе, построенные непосредственно царицами ханства. В то же время отмечалось, что не только правители, но и царицы оказывали неоценимую поддержку процветанию ханства и процветанию народа, нуждающегося в помощи, и сыграли большую роль в повышении культурно- духовной жизни.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, царица, правитель, дворец, наука.

**Annotation:** This article discusses the role of schools and madrasas, were built by the princesses in the formation and development of the scientific, cultural and literary environment in the Kokand khanate, which began the end of the XVIII- century and the beginning of the XIX-century, is unique, at the same time, not only the rulers but also the benevolent queens made an invaluable contribution to the prosperity of the Khanate and the development of the people in need, and these centers of knowledge played an important role in enlightening the people and raising their cultural and spiritual life.

**Keywords:** Kokand khanate, queen, ruler, palace, science.

Qadimdan har bir xonlikda nafaqat erkaklar asosiy o‘rin egallagan, balki ayollar ham o‘zlarining qobiliyatlari va jasoratlari bilan xonlikning ajralmas qismiga aylanishgan. Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o‘zlarining bunyodkorlik ishlari, ilm ahliga homiyligi, sahovatpeshaligi bilan faol bo‘lgan malikalar, bunga qo‘shimcha sifatida ilm-fan, san‘at, adabiyot rivojlanishiga hissa qo‘shgan shoirlar nomlarini ta‘kidlash biz uchun fahr tuyg‘usini uyg‘otadi. Xususan, o‘z davrining ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli, mehr-muhabbatda yuksak qalb sohibalari bo‘lgan malikalar davlatda sahovatpeshalik faoliyati bilan shug‘ullanganlar.

Mana shunday saxovatpeshalik ishlarini boshlab bergan malikalardan biri Qo‘qon xonligining birinchi hukmdori Shohruhbiyning rafiqasi Nozikbibini sanaladi. Shohruhbiy hayotligining so‘nggi yillarida, ya‘ni taxminan 1719-yilda o‘zbek urug‘larini yanada jiplashtirish maqsadida Qirg‘ urug‘i oqsoqolining qizi Nozikbibiga uylanadi. Shundan so‘ng Nozikbibini mavqeyi o‘zgarib Nozik Oyim deb aytila boshlanadi. Shohruhbiy ushbu xotini uchun Laylakxona mavzesining bir tomonida yer-mulk in‘om qiladi va bu joyda saroy barpo etadi. Ikki yillar chamasi vaqt o‘tib 1721-yillar atrofida Shohruhbiy vafot etgach, Nozik Oyim bu saroyga doimiy yashash uchun



ko'chib o'tadi. O'ziga in'om etilgan saroy atrofidagi ekin maydonlarini atrof qishloqlardagi nochor dehqonlarga foydalanishga taqsimlab beradi. O'zi o'g'li Abduraxmonxonni tarbiyalash bilan bir qatorda qishloq qizlarini maktab ochib savodini chiqarish bilan shug'ullanadi. O'z yerlaridan kelgan mablag'lardan yetimxona ochib miskinlarni qo'llab-quvvatlaydi va qishloq maktabi harajatlariga sarf etadi. Ushbu saroy asosida yuzaga kelgan qishloqqa xalq "*Oyimqishloq*" deb nom beradi. Bunday bag'rikenglik bilan qilingan ishlar va xalqqa bo'lgan mehri sababli Nozik Oyimga qarashli bu joy keyinchalik xonlikning boshqa aslzoda ayollari uchun ham tabarruk joyga aylanib, Qo'qon malikalari bu joyda ma'lum muddat yashashni o'z burchlari va sharafi deb biladilar.

Xonlik tarixida o'chmas nom qoldirgan malikalardan yana biri Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy (1763-1798)ning rafiqasi bo'lib, u ming urug'i oqsoqolining qizi Zuhra Oyimdir. Shahar ahli malikani ming urug'idan ekanligini hisobga olib unga "Mingoyim" deb nom beradilar. Boshqa bir manbada takidlanishicha, Mingoyimning asl ismi Faxrinniso bo'lib, Imomqulibekning qizi bo'lgan. Odatdagidek, malika hukmdorga turmushga chiqqandan so'ng unga mahr sifatida katta yer-mulk beriladi. Tabiiyki, Mingoyim ushbu mulkdagi xovlilardan birida maktab ochadi va otinbibilarni yollab qizlarni o'qitadi. Bir qism yerlarini turli masjid, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilib beradi. Mingoyim Nozik Oyimning nabira kelini bo'lganligi uchun Oyimqishloq yaqinidagi o'z yerlarini qayinbuvisidan ibrat olib yersiz dehqonlarga taqdim etadi. Bu joyda vujudga kelgan qishloq "*Oyim qo'rg'oncha*" deb nomlanadi.

Qo'qon xonligida shunday serhimmat malikalar qatorida mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegim ham munosib o'rin egallaydi. Nodira Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi bo'lib, Rahmonqulbiy Ming urug'i o'zbeklarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan. Olimxon 1808-yil Toshkentda bo'lgan isyonni bostirib, Qo'qonga qaytgach, ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi. So'ngra uni o'z tog'asi – Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyimga uylantirishga qaror beradi. Bu vaqtga kelib Mohlaroyimning aql-zakovati, xusn-malohati atrofga doston bo'lib ulgurgan edi. Olimxon bu ishi orqali o'z tog'asi va ukasi o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini yaxshilamoqchi, shu yo'sinda o'z siyosiy hokimyatini mustahkamlamoqchi bo'ladi. Mohlaroyim Umarxon nikohiga o'tgach avval Marg'ilonga, so'ngra Qo'qonga keladi. 1810-yili Olimxon o'ldirilgach Qo'qon taxtiga Umarxon o'tiradi va mana shu davrdan boshlab Nodiraning xonlik hayotidagi roli faollashib boradi. Umarxon davrida ayollar huquqlari ma'lum borada himoya qilina boshlanadi. Tabiiyki bunda uning rafiqasi Nodirabegimning xizmatlari benihoya kattadir. U ayollarning o'qish va yozishni o'rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo'lga qo'yadi. An'anaga ko'ra Qo'qon xoni Olimxon (1798-1810) o'z xukmronligi davrida ukasi Umarxonni 1806-yilda Mohlaroyimga uylanishi munosabati bilan keliniga mahr uchun katta yer-mulk in'om etadi. Unga berilgan yer-mulk "*Chek Mohlaroyim*" deb ataladi. U bu mulkdan ilm-ma'rifatni rivojlantirishda, yosh ijodkor qiz-juvonlarning ijodini qo'llashda foydalanadi. Bundan tashqari Mohlaroyim ham Qo'qon malikalari udumlariga amal qilib qaynonasi Zuhra Oyim (Mingoyim) va momo qaynonasi Nozik Oyimdan ibrat oladi. U ham Oyim qishlog'i mavzesida yana bir qo'rg'on tashkil etib nochorlarni qo'llaydi, dehqonlarni o'zlariga foydalanishga yer-mulk bo'lib beradi va bolalarini savodini chiqaradi. Buni natijasida ushbu zaminda paydo bo'lgan yangi qo'rg'onga xalq "*Mohlaroyim*" qo'rg'oni deb nom beradi.

Qo'qon maliklari orasida yana bir qirg'izlarning saru urug'idan bo'lgan malika- Yorqinoy (Jarqinoyim) faoliyatiga ham to'xtalib o'tish joiz. Yorqinoy 1802-yili Namangan viloyatining Uychi tumanidagi Qizil — Rabot qishlog'ida tavallud topgan. Mahzunning "Farg'ona xonlari tarixi" asarida Yorqinoy Axsilik To'xtanazar dodoxhning qizi ekanligi va uning bolalik yillari Talos vodiysining Qorabura ovulida o'tganligi aytib o'tilgan. Yorqinoy chiroyli, aqlli, xushmuomala el qadrlagan qiz bo'lib, Qo'qondagi o'zaro taxt talashishlar natijasida Talosga kelib qoladi va bo'lajak Qo'qon xoni Sherali bilan turmush quradi. Sherali Qo'qon xoni bo'lgach Yorqinoy ham farzandlari bilan birga Qo'qonga xon o'rdasiga ko'chib keladi. Garchand Yorqinoy xonning ayoli sifatida muhtasham o'rdaga joylashgan bo'lsada, uni ko'chmanchi-chorvadorlarga xos bo'lgan xislatlar tark etmaydi va Yorqinoy o'rda hovlisida chodir tiktirib, shu yerda istiqomat qilishni ma'qul ko'radi. O'rdadagilar Yorqinoyi "Xonoyim", "Hokimoyim" deb hurmat qilishgan chunki Hokimoyim dono maslahatchi, qanchadan-qancha savob ishlarning tashabbuskori bo'lgan, xatto o'zining vafotidan so'ng qilinishi lozim bo'lgan xayrli amallarni o'g'li Xudoyorxoniga vasiyat qilib qoldirgan. 1868-yil ramazon oyida Hokimoyim vafot etadi. Uni Qo'qon malikalarining



hazira (bir urug‘ yoki oila a‘zolarining qabrlaridan iborat kichik qabriston)sga hurmat ehtirom bilan dafn etadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ming sulolasi malikalari orasida ilm ahliga homiylik qilish, ijtimoiy himoyaga muxtoj tabaqalarni qo‘llab-quvvatlash, ehtiyojmand oilalarning o‘g‘il-qizlari taxsil olishi uchun maktablar barpo etish an‘anaga aylangan bo‘lib, bu borada Nozikbibi boshlab bergan bunyodkorlik ishlari keyingi malikalar davrida ham beminnat tarzda davom ettirildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Qo‘qon xonligining nafaqat hukmdorlari, balki malikalari ham yurt kelajagi va ravnaqi uchun birdek ma‘suliyatni his qilib yashashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev Ya. Xo‘qandi latif mahallalari va ko‘chalarining nomlanish tarixi. F.. Farg‘ona, 2007. 131-b.
2. Esonov Z, Toshmatov Sh, Isomiddinov Z. Qo‘qon xonlari o‘rdalari tarixi. T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 52-b.
3. Alixojiyev M. Qo‘qon xonligining madaniy xayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni. Tarix fan. nomz...diss.–T: 2012. – 122-b.



## МА’НАВИЯТ ВА МА’РИФАТ. “YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH”

**Tapilova Nafisaxon Maxammadyakubovna**  
Angren shahar 7-umumiy oʻrta taʼlim maktabi  
I-toifali huquq va tarbiya fani oʻqituvchisi  
Tel: +99893 94 923-41-44  
nafisa topilova 75 @gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizdagi hayotning rivojlanishi, unda intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, maʼnaviy - maʼrifiy gʻoyalar, taʼlim-tarbiya, maʼnaviyat, maʼrifat va uning tarixi haqida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** taʼlim-tarbiya, maʼnaviyat, maʼrifat, ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, anʼanalari, taraqqiyot, siyosat.

Milliy anʼanalarimiz va asriy qadriyatlarimizning tiklanishi, hayotimizdagi oʻrni yanada mustahkamlanmoqda. Maʼlumki, kuchli, qudratli davlat kuchli maʼnaviyat zaminida vujudga keladi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan koʻp asrlar mobaynida yaratilib kelgan gʻoyat ulkan, bebaho maʼnaviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosatining muhim masalasiga aylandi. Xalqimiz oʻz taqdirining chinakam egasi, oʻz tarixining ijodkori, oʻziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatining sohibi sifatida tan olindi.

Hozirgi davr Oʻzbekiston taraqqiyotida maʼnaviyat va maʼrifat, milliy istiqlol gʻoyasining rollari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Muharam birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Hushyorlikka daʼvat” asarida hozirgi eng muhim vazifalardan biri jamiyatimiz aʼzolarini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni karnol topdirish, ularning qalbida milliy gʻoya, milliy mafkura oʻz vataniga mehr -sadoqat tuygʻusini uygʻotish, oʻzligini anglash, ularni milliy va umrbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratligini taʼkidlashdir.

XX asrda “Maʼnaviyat” tushunchasining mazmuni yanada kengaydi va dunyoviylik kasb etdi. “Maʼnaviyat” arabcha soʻz boʻlib “maʼno” soʻzidan olingan: Ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiy, mohiyat, gʻamxoʻrlik, qaygʻurish, did kabi bir necha maʼnolarni anglatadi.

Maʼnaviyat odamlarining ruhiy va aqliy olami yigʻindisi. Maʼnaviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi. Aksincha maʼnaviyatning qashshoqlashuvi jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Boy maʼnaviyatimiz buyuk davlat koʻrib boʻlmaydi. Maʼnaviyat jamiyat va millat ravnaqining bosh omili va poydevoridir. Maʼnaviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga daʼvat etadigan inson ichki olamini boyitadigan, Lining iymoni irodasini, eʼtiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uygʻotadigan qudratli botiniy kuch ekanligini unutmazlik lozim.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, maʼnaviyat unga ruhiy oziq va qudrat bagʻishlaydi. Faqat moddiy jihatdan taʼminlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xosdir. Vatanimizning gullab yashnayotganligini uning jahon hamjamiyatiga yuz tutayotganligi, urf-odatlarimizni qadriyatlarimizni qaytadan tiklayotganligimiz va bularni davlat siyosati darajasiga koʻtarganimiz bizning maʼnaviyatli xalq ekanimizdan dalolat beradi. Xalq maʼnaviyati, anʼanalari, urf-odatlari milliy negizdan hosil boʻladi, va tarixiy ahamiyatga koʻra oʻziga xos, nodir sanaladi. Ayni har xalqning oʻziga xos madaniyati asrlar davomida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan ajralmagan holda yuzaga keladi rivojlanadi.

Har bir avlod madaniy boylikni yangitdan yaratmaydi, balki sivilizatsiya davomida shakllangan moddiy va maʼnaviy boyliklarni qabul qiladi hamda boyitadi. Demak, birinchi prezidentimiz I.A. Karimov taʼkidlaganlaridek, “Yuksak maʼnaviy burchlar kecha yoki bugun oʻylab topilgan emas. Ular insonlarning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha avlodlar tajribasi davomida yuzaga kelgan”. Xulosa qilib aytganda maʼnaviyatning asosini vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmiy, maʼrifatli boʻlish, oʻz dinini, oʻz xalqining urf-odatini sevish, ularni qadrlash kabi yuksak insoniy fazilatlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.aim.uz Maʼnaviyat asosari
2. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. 2008-yil
3. Begmatov A.S. Maʼnaviyat tarkibi, tuzilmasi va tamoyillari.



## BARHAMOL AVLOD-MUSTAHKAM KELAJAK POYDEVORI

**Xaytboyeva Nazokat Farhodov**

Xorazm viloyati Yangi bozor tuman  
31-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonning porloq kelajagi hisoblangan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni jismonan baquvvat, ma'naviyati buyuk farzandlar qilib tarbiyalashdek sharaflilik yo'lda buyuk ajdodlarimiz merosi hamda yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev va O'zbekistonning birinchi prezidenti I. A. Karimov ko'rsatgan tamoyillariga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Jismonan baquvvat, ruhan sog'lom, teran fikrluvchi, ma'naviyati yuksak, komil inson.

Bugun biz hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga qo'yan ezgu va ulug' maqsadlar sari tinch osoyishta hayot kechirayotgan, shu bilan birga o'z kuchini va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat, ozod va farovon hayotni mustahkamlash yo'lida qo'lni qo'lga berib harakat qilayotgan bir zamonda yashayapmiz. Shunday ekan kelajagimizni porloq va hayotimizni farovon bo'lishida asosiy tayanchimiz bo'lgan farzandlarimizning ta'lim va tarbiya olishida barchamiz birdek mas'ul bo'lmog'imiz lozim.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql zakovatimiz, bilim va tajribamizni jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak. O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol, pok bo'lib mehnat qilsak, men aminmanki, ko'zlagan barcha marralarimizga, albatta, yetamiz".

Yurtboshimiz tomonidan aytilgan bu so'zlarning ma'no mohiyatini chuqurroq tahlil qilib o'zimiz uchun dasturi amal qilish va mana shu yo'lda og'ishmay, qo'lni qo'lga berib fidokorlik ko'rsatish har bi rustoz, murabbiy shu bilan birga, eng avvalo, ota-ona, oila, qo'ni-qo'shni, mahalla va shu yurtda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy burchidir. Barchamizga ma'lumki, ona yurtimizning porloq kelajagi, barchamiz orzu qilgan ertangi kun, albatta, biz tarbiyalab voyaga yetkazayotgan farzandlarimizga bog'liq. Dehqon yerga ekin ekar ekan, albatta, yaxshi niyat qiladi. Toki u ekan nihol hosilga kirguniga qadar uni parvarishlab, kerakli ozuqasini vaqtida berib, keraksiz shoxlarini kesib unga bor mehrini beradi. Farzandni niholga qiyoslashadi. Bolalarimizga ham ana shunday mehr berib, to'g'ri ta'lim – tarbiya olishida yordamlashib, zararli odatlar va turli xil bizning mentalitimizga yot bo'lgan illatlardan saqlay olsak, bir kun kelib u, albatta, o'z mevasini beradi. Biz sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashda faqatgina uning jismoniy salomatligiga emas, balki uning ruhan sog'lom va ma'naviyatini komil inson bo'lib ulg'ayishiga ko'makdosh bo'lishimiz lozim.

Shu o'rinda Amir Temur bobomizning: —Askarlari baquvvat el qudratli bo'lur, qudratli elning askarlari baquvvat bo'lur degan fikrlarini davomi sifatida

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi." Degan fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb topdim. Biz fikr yuritayotgan mavzumizning bosh g'oyasi hisoblangan kelajak avlodni yot g'oyalar ta'siridan asrash ekan, bu masalaga chuqurroq yondashishimiz lozim. Ayni paytda real hayotdagi haqiqat shuni ko'rsatadiki, har qanday jadal rivojlanishdan ikki hil maqsadda ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agar tarixga nazar tashlasak ezgulik yo'lida xizmat qiladigan dinlarda ham yaxshilik va yovuzlik kabi qarama qarshi kuchlar o'rtasida kechadigan kurashga guvoh bo'lamiz. Aynan bugungi kunda eng dolzarb masala axborot almashinuv jarayonlarining tezkor o'sib borayotganligi yosh avlodga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Keng ma'lumot olish bilan birga o'zlari tushunib yetmagan va oxirida hayotida chuqur asorat qoldiradigan turli xil oqimlarga qo'shib qolish holatlari ham uchramoqda. O'zbekona qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga yot bo'lgan diniy fundamentalizm va diniy ekstrimizm kabi vayronkor g'oyalar ta'siriga tushib qolgan yoshlarimiz borligi bizga sir emas. Mana shunday holatlarni oldini olish, turli xil oqimlardan farzandlarimizni asrash va dinning mohiyatini anglab



yetishlari uchun ularga ko‘maklashish barchamizning oldimizda turgan eng oily maqsadimiz bo‘lishi lozim.

I.A.Karimovning ta‘kidlaganlaridek: “Qadim qadimdan bola tarbiyasiga islom dinining ta‘siri kuchli bo‘lgan. Chunki biz o‘z dinimizni qadrlaymiz, ungasuyanamiz. Nima uchun deganda sog‘lom odam sog‘lom fikrlaydi, sog‘lom fikrlayotgan odamgina Xudoga iymon keltiradi, e‘tiqodi sog‘lom bo‘ladi. Shunday ekan, sog‘lom avlod tarbiyasi din uchun ham juda ahamiyatli. Shunday ekan, ajdodlar me‘rosi, azaliy urf-odat va qadriyatlarimiz ruhida tarbiya topayotgan har bir o‘zbek farzandining kelajagi buyuk bo‘lishiga ishonamiz. Chunki bizlar ma‘naviyati yuksak, insoniylik fazilatlarining eng yuqori cho‘qqisi hisoblangan komillikka erishgan buyuk ajdodlarimizning davomchilarimiz. Biz yashab turgan bu ona zamin ne-ne buyuk zotlarni ulg‘aytirdi. Imom al- Buxoriy, Ahmad al- Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Mahmud az- Zamaxshariy, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk zotlarga beshik bo‘lgan bu ko‘hna zaminda yashayotganligimizning o‘ziyoq bizlarga tog‘dek g‘urur va iftixor baxsh etadi. Men o‘zbekman deb g‘ururlangan har bir yurtdoshimizning tomirida ana shunday buyuk zotlarning qoni oqmoqda. Bizning xaiqimiz azal- azaldan mehr-oqibatni, insoniylikni eng buyuk fazilat darajasiga ko‘tarib kelgan. Bularning barchasi bizning ma‘naviyat sohasida naqadar katta merosga ega ekanimiz va aynan shu jihatdan boshqalardan ajralib turishimizdan dalolat beradi. Mana shunday buyuk meros bilan sug‘orilgan ta‘lim asosida tarbiyaolayotgan barkamol avlodning kelajak poydevori albatta mustahkam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2017
2. I. A. KARIMOV Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. –T.: 2011
3. I. A. KARIMOV Yoshlarimiz –xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: 2006



## ЎЗБЕКИСТОН VA HINDISTON MAMLAKATLARI O‘ZARO MADANIY HAMKORLIKNING TARIXIY XUSUSIYATLARI

**Boymirzayev Ismoil**

Farg‘ona davlat universiteti  
akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

**Anatotsiya:** O‘zbekiston va Hindiston davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar bu ikki davlat tarixini yakdil ekanligini anglatadi. Albatta bu madaniy aloqalar mustaqillikdan so‘ng yana bir bosqichga o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimovning Hindistonga dastlabki tashrifi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Jo‘shqin Gujarat – 2019” IX xalqaro investitsiya sammitidagi ishtiroki.

**Kalit so‘z:** madaniyat, Hindiston, sivilizatsiya, SPENDEX TEKSTIL, hamkorlik, ikki tamonlama hamkorlik, madaniy aloqalar, Boburnoma, Madras, Dehli birodarlashgan shaharlar.

O‘zbek va hind halqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O‘zbekiston ham, Hindiston ham qadim sivilizatsiya beshiklaridan hisoblanadi. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy XI asrda ushbu diyorda bo‘lgan va o‘zining mashhur “Hindiston” asarini bu sehrli mamlakatga bag‘ishlagan. Unda hind diyorining tabiati, tarixi xalqining hayot tarzi, falsafiy-diniy dunyoqarashlari haqida hikoya qilingan. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahridin Muhammad Bobur esa XVI asrda esa “Boburnoma” kitobi bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi, hind xalqini esa Vatanimizning go‘zalligi, ko‘rk-tarovati bilan tanishtirdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo‘liga tushdi<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimovning Hindiston davlatiga keyingi yillarda to‘rt marotaba qilgan tashrifi ham bu ikki davlat o‘rtasida aloqalarning qamrovining nechog‘lik kattaligini bilishimiz mumkin. Zero O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov 1991-yil avgust oyida ushbu mamlakatga amalga oshirgan oliy darajali dastlabki tashrifi chog‘ida do‘stona aloqalar va o‘zaro ishonchni rivojlantirish yo‘lida mustahkam poydevor yaratdi desak xato qilmagan bolamiz. Bundan tashqari 1991-yilda o‘z faoliyatini boshlagan “O‘zbekiston-Hindiston” do‘stlik jamiyati madaniy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Toshkent shahrimizda 2006-yilning aprel oyida Javoharlar’l Neru nomidagi O‘zbekiston-Hindiston axborot texnologiyalari markazi ochildi. O‘zbekiston va Hindiston xalqlarining adabiy aloqalari ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Hindistondagi yirik kutubxonalardan Dehli, Bombay, Madras, Haydarobod, Kal’kutta, Aligarx oliygohlarining kitob fondlarida juda ko‘p nodir qo‘lyozma asarlari, adabiyotga oid hujjatlar saqlanmoqda.<sup>2</sup> Bu manbalar – O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi adabiy, madaniy aloqalar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Keyingi 20 yil ichida Hindistonda topilgan qo‘lyozmalar ichida Boburning “Boburnoma” asarining o‘zbek tilidagi nusxasi hamda Bobur asarlarining ro‘yxatidagi ikki noma’lum qo‘lyozmasi bor. XVI asrda ko‘chirilgan Alisher Navoiy asarlari ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek shoirlaridan Durbek, Xorazmiy, Lutfiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari, Kashmirda topilgan Zebunisoning she’riy to‘plamlari keng jamoatchilik orasida qiziqish tug‘dirmoqda.

O‘zbekistonda hind yozuvchi va shoirlarining asarlari katta qiziqish bilan o‘qiladi. O‘zbek o‘quvchilari Rabindranat Tagor, Prem Chend, Krishan Chand, Sajjod Zohir, Amrita kabi hind adiblarining o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlaridan unumli foydalanib kelmoqdalar. Keyingi 25 yil mobaynida hind yozuvchi va shoirlarining 60 dan ortiq asarlarining o‘zbek tilidagi tarjimalari nashr qilindi. Hindiston madaniyati o‘zining xususiyatlari, yo‘nalishlari, oqimlari, janrlari, milliy xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, ayrim tamonlari bilan o‘zbek madaniyatiga yaqinligi yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun hind san’ati ustalarining O‘zbekistondagi chiqishlari xalqimiz tamonidan har doim katta qiziqish bilan qabul qilinadi va mamlakatimiz madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romanini panjob tilida, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani hindiy tilida nashr qilingan. Bulardan tashqari hind kitobxonlari Oybekning “Qutlug‘ qon”, G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” asarlarini ham o‘z

<sup>1</sup> A‘zamova S. Hozirgi Hindiston. T., “Fan” 1991 y.

<sup>2</sup> Mitroxin. Hindiston yangi asr bo‘lag‘asida. D., 1992 y.



tillarida o'qish imkoniga muyassar bo'lganligi bu ikki qardosh xalqlarning adabiyot sohasida bir-birlariga yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ikki xalqning o'zaro qiziqishlari shaharlarning birodarlashuviga ham ta'sir ko'rsatdi. Birodarlashgan shaharlar aloqalarining rivojlanishi turli mamlakatlarning o'zaro munosbatlarini kengaytirishning o'ziga hos shakliga aylandi. Bunday aloqalar ikki davlat xalqlarining tinchlikni mustahkamlash, xalqlar o'rtasidagi hamdardlik, o'zaro yordam tuyg'ularini oshirishga imkon yaratdi. O'zbekiston Hindistonning Panjob viloyati bilan yaqin aloqa o'rnatgan bo'lib Toshkent Panjobning Patiala shahri bilan birodarlashgan. Har yili 1-mart kuni birodarlashgan shaharlar kuni nishonlanadi. Toshkent-Patiala do'stlashuvi, hind va o'zbek xalqining o'zaro do'stligining timsoli bo'lib hisoblanadi<sup>1</sup>.

O'zbekistondagi Hindiston elchixonasi bilan birgalikda ilmiy-amaliy simpoziumlar o'tkazilib kelinmoqda. Xuddi shuningdek, Hindiston madaniyat markazi va elchixonasi bilan birga Farg'ona davlat universiteti o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilgan. 2000-yildan Farg'ona davlat universiteti va Hindistondagi Mavlono Abul Kalom Azod nomli Osiyoni o'rganish tadqiqot instituti o'rtasida ilmiy hamkorlik olib borilmoqda<sup>2</sup>. Joiz bo'lsa shuni aytish kerakki 2001-yil Yangi Dehli universitetida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo mustaqilligining 10 yilligi" ga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiyada Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi i.f.d.professor A.G'ofurov o'z ma'ruzasi bilan qatnashdi. Aynan shu yili Farg'ona davlat universiteti va Mavloni Abul Kalon Azod nomli Osiyoni tadqiq qilish instituti o'rtasida 2002-2010 yillarda O'zbekiston davlati bilan Hindiston davlati o'rtasida madaniy aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadiga mo'ljallangan hamkorlik shartnomasi tuzildi. Bu tuzilgan hamkorlik shartnomasi asosida Hindistondan har yili talabalar, magistrantlar va tadqiqotchilar kelib turishsa, Farg'ona davlat universiteti professor-o'qituvchilarining ilmiy maqolalari ingliz tilida muntazzam nashr etilmoqda. 2002-2008 yillar davomida shu harakat tufayli Yangi Dehlida Farg'onalik olimlarning 19 ta ilmiy maqolalari maxsus to'plamlarda chiqarildi. Hindiston davlati bilan aloqalar juda keng qamrovliy-ki mamlakatimizning har bir jabhasida madaniyat, iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy sohalar bo'ladimi barchasida bu davlatning o'rni kattadir. 2007-yil 13-15-sentabr kunlarida Farg'ona shaharida Hindiston madaniyat markazi qoshida havaskorlik guruhining konserti bo'lib o'tdi va unda 3500 nafar ishtrokchi qatnashdi. Shu yilning 13-14 sentabr kunlari Hindistonning O'zbekistondagi elchisi Skand P. Toyal va Toshkent sharqshunoslik instituti, Milliy universitet va Beruniy sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Farg'ona davlat universiteti olimlari, magistrantlari, talabalar ishtrokida va O'zbekiston Diplomatiya va xalqaro munosabatlar universiteti hindshunoslik kafedrasini mudiri doktor Jyosona Bakshi va boshqalar ishtrokida O'zbekiston-Hindiston o'rtasida rivojlanayotgan hamkorlik munosabatlari mavzusida ilmiy-amaliy konfrensiya bo'lib unda 50 ta maruza tinglandi. O'zbekistonning Hindiston davlati bilan aloqalari rivojlanishiga yana bir misol Hindistonning La'l Bahodir Shastri nomli madaniyat markazi, Mahatma Gandi nomli Hindiston Markazi bilan birgalikda "Boy madaniyat va tarixiy meroslar asosida hamkorlikni tuzish" mavzusida xalqaro seminar bo'lib o'tib unda Farg'onalik prof.A. G'ofurov, G. Xolmatjonov, prof. M. Adxamov va boshqalar Hindiston davlatining mamlakatimiz bilan olib borayotgan iqtisodiy va madaniy sohalaridagi aloqalarining yutuqlari to'g'risida ma'ruzalar qildilar. Bundan tashqari Farg'ona viloyatimizning Marg'ilon shaharida Hindiston elchisi Skand P. Toyal tashabbusi bilan "SPENDEX TEKSTIL" qo'shma ochilishi va uning ochilishida Hindiston davlatining yangi elchisi doktor Said Monal Xon Alqadri ham qatnashdi.

Shuni takidlab o'tishimiz kerakki o'zbek-hind san'atining, ayniqsa, qo'shiqchilik va raqs borasidagi yaqinlik asrlar ichra davomiyligi, 1997-yilda tashkil etilgan Samarqanddagi "Sharq taronalari" festivalida hindistonlik san'at ustalarining faol ishtroki va yuqori darajada o'rinlarni egallaganligi bilan ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa keying yillardagi o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" festivalida hind san'atkorlarining chiqishlari brogan sari jozibali ko'rinish aks ettirmoqda.

Barcha sohalar kabi O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasidagi aloqalar 2016-yildan boshlab yangi bosqichga ko'tarildi. Shu jumladan prezidentimizni 2018-yilda Hindiston bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuvini keltirib o'tishimi mumkin. Bu uchrashuv ikki davlat

<sup>1</sup> A'zamova S. Hozirgi Hindiston. T., "Fan" 1991 y.

<sup>2</sup> Ahmadali G'. Hindiston.T., "Moliya". 2010 y.



oʻrtasidagi aloqani yanada mustaxkamladi desak xato qilmagan boʻlamiz. Bu uchrasuvda Andijon viloyati va Gujarat shatati, Samarqand shahari va Agra shaharlari oʻrtasida hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, Erkin farmatsevtika zonasini tashkil etish toʻgʻrisida bitimlar imzolandi. Shuning bilan birga Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan 2019-yilning 17-18 yanvar kunlari ushbu mamlakatda amaliy tashrif bilan boʻlib, “Joʻshqin Gujarat – 2019” IX xalqaro investitsiya sammitida ishtirok etdi. Bu uchrashuvda davlat rahbarlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sogʻliqni saqlash, farmatsevtika, zargarlik sanoati, qishloq xoʻjaligi, sayyohlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish va boshqa yoʻnalishlardagi ustuvor loyihalar va hamkorlik dasturlarining amaliy ijrosini jadallashtirish zarurligini qayd etdi. Bunday aloqalar bu ikki davlatni aloqalari tarixan bogʻlanganligini yana bir isboti boʻla oladi.

Yuqoridagi fikirlardan xulosa qiladigan boʻlsak, bu ikki mamlakatning madaniy aloqalari kecha yoki bugun vujudga kelgani yoq. Agar Oʻzbekistonning Hindiston davlati bilan aloqalriga tarixan nazar tashlar ekanmiz, XI asrda Beruniy, XVI asrda Bobur va boburiylar davri madaniyati albatta bu ikki davlat madaniyati tarixiy ildizi ancha qadimiy ekanligini koʻrishimiz mumkin. Ikki davlatlar aloqalari bugungi kungacha rivojlanib keldi, bundan keyin ham undanda odimlashajak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadali G. Hindiston. T. “Moliy”. 2010.
2. Aʼzamova S. Hozirgi Hindiston. T: “Fan” 1991.
3. Z.M.Bobur. Boburnoma. T. “Yulduzcha” 1989.
4. Xalq soʻzi. Oʻzaro manfaatli hakorlikning yangi istiqbollari. 2011. № 95.\
5. www. gazeta. Uz
6. www uzlidep uz news-of uz



## ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ В ОБУЧЕНИИ ИСТОРИИ

Файзиева Махфуза Исроиловна,

Учитель по истории, школы №18, г.Навай

**Аннотация:** Введение новых стандартов образования становится причиной, заставляющей учителя и общество в целом, пересматривать ключевые вопросы относительно обучения и воспитания. На данный момент образования позиционируется в качестве услуги, которая ориентирована на реализацию социального общественного заказа, основная цель которого состоит в том, чтобы сформировать у обучающихся гражданскую ответственность, духовность и культуру, а также самостоятельность, инициативность и способность успешной социализации в условиях общества. Преподавание истории в новых условиях должно базироваться на использовании различных методов, которые должны быть правильно и грамотно использованы. Кроме того, важно и применение новых методов и информационных технологий, о чем и пойдет речь в данной статье.

**Ключевые слова:** Метод, меж предметная связь, технология педагогического образования, цели и задачи обучения.

Школа должна подготавливать подростков к жизни, а также труду, оказывая содействие для раскрытия и развития его личности, сил, для того, чтобы к периоду самостоятельной жизни, они уже владели всем тем, что потребуется им для осуществления практической деятельности. Современный учитель призван играть важную роль в развитии умственной деятельности учеников, а также в процессе усвоения ими разных навыков и знаний, выходящих за рамки программного материала.

С обретением независимости в Республике Узбекистан придает большое значение возрождению и дальнейшему развитию культуры и духовности народа, совершенствованию системы национального образования, укреплению его основы, повышению их до уровня мировых стандартов в гармонии с требованиями времени.

Таким образом, преподавание истории базируется на ряде применения комбинаций методов и применении информационных технологий, которые в условиях современности способствуют улучшения изучения учебного материала

За счет постепенного перехода от педагогической помощи к оказанию педагогической поддержки, а позднее и к педагогическому продвижению, будет предполагаться изменение акцента с методов и приемов работы учителей к способам учебной деятельности самого ученика. В качестве методик и приемов, которые симулируют развитие познавательного потенциала учеников, выступают:

1. Оказание педагогической помощи в виде поощрения или порицания, технологии педагогического образования, а также в качестве применения игр и игровых форм организации учебной деятельности,

2. Оказание педагогической поддержки, представленной в качестве аргументированного выбора учебного содержания, тематики, источников, а также способов ее исполнения, форм отчетности, рабочего режима, определения рационального способа реализации заданий,

3. Обеспечение педагогического продвижения посредством самооценки по плану, схемам, а также за счет проведения самоанализа содержания, самооценки собственных познавательных способностей, наряду с выбором коррекционных занятий, связанных с развитием памяти. Кроме того, важную роль здесь будет играть и самостоятельность составления опорных схем по изучаемому материалу.

За последние годы был существенно усилен интерес к теории оптимизации процессов образования за счет широкого использования современных обучающих технологий, наряду со значительными финансовыми затратами, что нужны для того, чтобы получить образования высокого качества. Достижение оптимальности построения обучения является возможным только на базе такого управления им, которое организовано с учетом закономерностей в обучении, на базе использования современных методик и форм преподавания.

Отсюда вывод, что методика преподавания, как наука крайне важна и значима. Методика с древнегреческого – «способ познания», «путь исследования».



Метод представлен в качестве способа достичь конкретной цели или решить какую-то конкретную задачу.

В условиях стремительного растущего информационного потока, просто давать знания учащимся, не заинтересовывая, без применения инновационных методов наряду с традиционными методами – равносильно безграмотности. т.к. что современное поколение и не жаждет «брать знания», как бы учителя не хотели «его дать». Это происходит, по моему мнению, не только потому, что школьники мало мотивированы на обучение, скорее, они прагматично ориентированы –зачем брать то, что возможно не пригодиться. И в данном случае очень хорошо сыграют свою роль в становлении личности работы в процессе урока с применением и преподношением предмета, тем, с использованием мотивирующих методов преподавания, где учащиеся развивают свой кругозор, расширяют логическое мышление и т.д..

Какие методы можно применить в процессе преподавания Истории:

I. Метод. Используя: компьютер, телевизор, телефон как средство подачи учебной информации на уроке истории , очень продуктивно вести урок в музыкальном сопровождении .

Музыка воодушевляет весь мир, снабжает душу крыльями, способствует полету воображения; музыка придает жизнь и веселье всему существующему...

Ее можно назвать воплощением всего прекрасного и всего возвышенного.

Платон.

Еще в древности выделяли три направления влияния музыки на человеческий организм:

- 1) на духовную сущность человека;
- 2) на интеллект;
- 3) на физическое тело

Примеры:

1. В 8 классе по Всемирной истории на тему «Литература и искусство» при описании жизни и творчества великих композиторов таких как: Иоганн Себастьян Бах, Людвиг Ван Бетховен, Моцарт уместно озвучить учащимся их музыкальную композицию в сопровождении с портретом.

2. в 9 классе по истории Узбекистана по теме «Театральное и музыкальное искусство» в сопровождении с иллюстрацией музыкального инструмента включить их звучание.

3. При объяснении темы определенного периода, государства, события вести урок в соответствующем музыкальном сопровождении.

Использование такого метода также можно отнести к методу меж предметной связи. Что является еще одним инновационным методом преподавания.

На уроках истории музыка станет помощником для учителя. Она – как увертюра к опере способна перенести ученика не только в любую страну мира, но и в любую эпоху.

Музыка скажу, многие учителя хотят, чтобы ученики имели хорошую память, повысили внимательность и концентрацию, были творческими. Так вот один из рецептов – музыка. Используйте музыку на уроках. Она станет вашим помощником. Результат придет!

II. Метод

Этот метод предусматривает изучение и изложение фактического материала по собственному плану. Определенного шаблона в написании плана отсутствует, Учащиеся под наблюдением учителя могут применить любой метод по своему усмотрению. План должен дать возможность построения ответа в соответствии с логикой экономического развития, определенного государства.



План может выглядеть в виде кластера «Виноградная лоза»  
Тема: Социально-экономическая жизнь в Канадском ханстве



Этот план дает возможность построения ответа в соответствии с логикой экономического развития Кокандского ханства того времени. Развитие сельского хозяйства стало основой экономического подъема и повлекло за собой развитие и увеличения ремесленного производства (потребовались новые орудия труда, предметы быта и т.д.). Торговля, являясь посредником между сельскохозяйственным и ремесленным производством, также переживает подъем, что, в конечном счете, и приводит к росту городов, население которых в основном занято ремеслом и торговлей. Готовясь к уроку истории по такому плану, дети значительно проще усваивают учебный материал

**Заключение.** При выборе и сочетании методов обучения необходимо руководствоваться следующими критериями:

1. Соответствие методов принципам обучения.
2. Соответствие целям и задачам обучения.
3. Соответствие содержанию данной темы.
4. Соответствие учебным возможностям школьников: возрастным (физическим, психическим); уровню подготовленности (образованности, воспитанности и развития); особенностям классного коллектива.
5. Соответствие имеющимся условиям и отведенному времени для обучения.
6. Соответствие возможностям самих учителей. Эти возможности определяются их предшествующим опытом, уровнем теоретической и практической подготовленности, личностными качествами учителя и прочим.

В заключении хотелось бы подчеркнуть, что, как известно, главный враг успеха - это однообразие и монотонность, рождающие скуку. Только благодаря внедрению в учебный процесс активных методов обучения, разнообразных средств и приёмов обучения, независимо от того, какой предмет вы преподаете, можно развить познавательный интерес учеников, результатом которой и станет активная творческая самостоятельная познавательная деятельность.

Используемая литература:

1. Актуальные проблемы преподавания политической истории Узбекистана. /Под ред. В.Л. Гентшке. -Т.: 1992. 52с.
2. Агибалов Е.В., Донской Г.М. Методическое пособие по истории средних веков. -М.: Просвещение 1978

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000